

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12542280>

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA SUG'ORILADIGAN QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sultonov Xudoyshukur G'ayratovich

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

sultonovxudoyshukur@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining o'ziga xos xususiyatlari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan masalalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi yerlari, samaradorlik, sug'oriladigan yerlar, yer resurslari, ekologik komponentlar.*

Аннотация: *в данной статье описаны особенности орошаемых сельскохозяйственных земель и вопросы, направленные на повышение эффективности их использования в условиях перехода к зеленой экономике.*

Ключевые слова: *зеленая экономика, сельское хозяйство, земли сельскохозяйственного назначения, эффективность, орошаемые земли, земельные ресурсы, экологические компоненты.*

Ключевые слова: *многоуровневая экономика, сельское хозяйство, сельскохозяйственные угодья, плодородные, орошаемые земли, земельные ресурсы.*

Abstract: *this article describes the specific characteristics of irrigated agricultural land and issues aimed at increasing the efficiency of their use in the context of the transition to a green economy.*

Key words: *green economy, agriculture, agricultural land, efficiency, irrigated land, land resources, ecological components.*

KIRISH

O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondoshuvlarning shakllanishiga olib keldi.

Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar ichida va avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Shundan kelib chiqib aytish keraki, yashil iqtisodiyotga o'tish iqtisodiy tarmoqlarning barchasida birdek amalga oshirilmog'i lozim. Iqtisodiy tarmoqlar bir-biri bilan chambarchas ekanligi sababli yashil iqtisodiyotga o'tish samaradorligini oshirish maqsadida bu rajayonlarni difersifikatsiyalash muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o'tish va uning samaradorligi iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi tarmoqlariga ham tasir ko'rsatmay qolmaydi. Ma'lumki qishloq xo'jaligi insonlarning kundalik oziq-ovqat, kiyim kechaklarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, saonot uchun hom ashyo bazasi va mehnat kuchlarini ish bilan ta'minlash masalalari bilan shug'ullanadi. Mamlakatimizda ham qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab qo'yildi.

Ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, XX asrning 70-75-yillaridayoq jahon tabiiy resurslarining taqchilligi ortib borishi va oziq-ovqat yetishmasligi muammosi yuzaga kela boshladi. Natijada qishloq xo'jaligida mavjud resurslardan oqilona foydalanish masalalariga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Agar qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish uchun o'zlashtirilgan yer maydonlarni aholi soniga bo'ladigan bo'lsak, 1970 yilda bir kishini oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun 3800 m², 2005 yilda 2500 m²,

2050 yilga borib esa 1800 m² yer maydoni zarur bo'ladi. Buning uchun qishloq xo'jaligi sohasida hosildorlik va mehnat unumdorligi muntazam oshirib borish lozim.

Bunday holatda qishloq xo'jaligi sug'oriladigan yerlarida maksimal samaradorlikga erishish, "yashillashtirish"ning zamonaviy konsepsiyalari esa qishloq xo'jaligining aniq soha yoki tarmoqlarini rivojlantirishga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. Qishloq xo'jaligiga "yashil texnologiyalar"ni joriy etish g'oyasi ustun darajada organik qishloq xo'jaligi sohasiga taalluqlidir.

Qishloq xo'jaligini yashillashtirishga qaratilgan strategik islohotlar va investitsiyalar sohada quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini yaratadi:

- iqtisodiy tizimni diversifikatsiyalash va samarasini yaxshilash;
- hosildorlikni oshirish hisobiga kambag'allik darajasini pasaytirish va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan "yashil" ish o'rinlarini yaratish;
- barqaror oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan birgalikda bozorlarni ekologik sof mahsulotlar bilan to'yintirish;
- sanoatga asoslangan qishloq xo'jaligining amaldagi usullari bilan bog'liq iqtisodiy va ekologik xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish.

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi va qishloq xo'jaligini "yashil" iqtisodiyot asosida rivojlantirish zaruriyati umumglobal rivojlanish tendensiyalariga moskeladi. Jumladan, mamlakat aholisining qariyb 16,4 millioni (jami aholining 49,4 foizi) qishloq hududlarida istiqomat qiladi (2018 y.). Mamlakatda tug'ilish darajasi yuqori (23,3 promille) va shunga mos ravishda qishloq joylarida ortiqcha ishchi kuchi mavjud. Aholining 45,5 foizini 25 yoshgacha bo'lganlar, 55 foizdan ko'prog'ini esa 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida 20 mln. gektardan ortiq, shu jumladan 3,2 mln. gektar sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalanib, aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xom ashyo yetishtirilmoqda¹⁹⁰.

Respublika aholisi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi, qishloq xo'jaligi erlarining boshqa toifaga o'tkazilishi va global iqlim o'zgarishi ta'sirining keskinlashuvi oqibatida oxirgi 15 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan

sugʻoriladigan er maydonlari oʻlchami 24 foizga (0,23 gektardan 0,16 gektargacha), oʻrtacha yillik suv taʼminoti darajasi esa 3 048 metr kubdan 158,9 metr kubgacha qisqardi. Prognozlarga koʻra, kelgusi 30 yil mobaynida sugʻoriladigan yer maydonlari yana 20 — 25 foizga qisqarishi mumkin¹.

Uzoq yillar davomida qishloq xoʻjaligi yerlaridan samarasiz foydalanish natijasida tuproqning tabiiy unumdorligi va ekinlar hosildorligi pasayib, yetishtirilgan mahsulot sifati yomonlashmoqda, atrof-muhit ifloslanishi ortib bormoqda. Jumladan, sugʻoriladigan ekin erlaridagi tuproqlarning 93 foizida harakatchan fosfor miqdori, 68,3 foizida almashuvchan kaliy miqdori, 79,3 foizida gumus (chirindi) miqdori oʻrtachadan past darajaga tushib qolgan.

Xulosa oʻrnida aytish kerakki, bugungi kunda insoniyat sonining ortib borishi bilan uning tabiiy resurslarga boʻlga ehtiyoji ham tobora yuksalib boradi. Baʼzi bir resurslar cheklangan va ular qayta tiklanmaydi yoki uzoq yillar kerak boʻladi. Shunday ekan insoniyatning ehtiyojlarini har jihatdan toʻlaqonli taʼminlash iqtisodiyotning oldida turgan vazifalaridan biri hisoblanadi. Ekologik sof oziq-ovqat maxsulotlarini yetishtirish masalalari har qaysidan ham muhimroq hisoblanadi, buning uchun bizga yer resurslari kerak boʻladi.

Maʼlumki, sugʻoriladigan yerlar boshqa yer toifalariga qaraganda bir necha bor samaraliroq xisoblanadi. Masalan lalmikor yerlarga nisbatan 7-8 barobar koʻproq xosil olish mumkin. Iqtisodchi olimlarning fikriga koʻra bugungi kunda yer yuzidagi barcha yerlardan maksimal darajada foydalanadigan boʻlsak, 50 mldr aholini oziq-ovqat maxsulotlari bilan taʼminlash imkoniyani tugʻuladi.

¹ А.Алтиев, И.Ачилов, Х.Султанов "Экономика и социум" №6(85) 2021 www.iupr.ru

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining —Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4477-sonli Qarori, 2019 yil 4 oktyabr.
2. Altiev A.S. Yer resurslaridan foydalanish tizimini erkinlashtirishning iqtisodiy mexanizmi. Monografiya. -T.:“Fan”, 2009. – 224 b.
3. Sultonov X. G‘. Sug‘oriladigan yerlar ekologik holatiga ta’sir etuvchi omillar va sabablari hamda ularning iqtisodiy jarayonlarga ta’siri// Educational Research in Universal Sciences, 2023 y. avgust 8-son.
4. www.economist.com
5. www.worldeconomics.com